

**AUTOIMMUN TIREOIDIT (ANTI-TPO, ANTI-TG) BILAN
OG'RIGAN AYOLLARDA TUXUMDON REZERV
KO'RSATKICHLARINING (AMH, AFC) O'ZGARISHLARI VA
ULARNING O'ZARO BOG'LIQLIGINI BAHOLASH**

Doniyorova Ch.T., Isanbayeva L.M.

*Respublika ixtisoslashtirilgan ona va bola salomatligi ilmiy-amaliy
tibbiyot markazi, Toshkent, O'zbekiston.*

Kirish.

Autoimmun tireoidit (AIT) — ayollar orasida keng tarqalgan endokrin patologiya bo'lib, u reproduktiv tizim faoliyatiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Tireoid antitanachalar (anti-TPO, anti-TG) gormonal muvozanatni o'zgartirib, tuxumdon rezervining pasayishiga olib kelishi mumkin. AMH (anti-müller gormoni) va AFC (antral follikulalar soni) tuxumdon funksional zaxirasining muhim biomarkerlaridir. Ushbu ko'rsatkichlar AIT fonida qanday o'zgarishini aniqlash reproduktiv salohiyatni baholashda katta klinik ahamiyatga ega.

Tadqiqotmaqsadi. Autoimmun tireoidit (anti-TPO, anti-TG) bilan og'rigan ayollarda AMH darajasi va AFC ko'rsatkichlarining o'zgarishini baholash hamda ularning o'zaro korrelyatsiyasini aniqlash.

Materiallar va usullar.

Tadqiqotga 20–40 yosh oralig'idagi 60 nafar ayol jalb qilindi. Asosiy guruhga autoimmun tireoidit tashxisi qo'yilgan 40 nafar bemor, nazorat guruhiga esa tireoid patologiyasiz 20 nafar sog'lom ayol kiritildi. Barcha ishtirokchilarda anti-TPO, anti-TG, TSH, FT4, AMH darajalari aniqlanib, transvaginal



ultratovush yordamida antral follikulalar soni (AFC) baholandi.

Natijalar.

Autoimmun tireoiditli ayollarda AMH darajasi nazorat guruhiga nisbatan ishonarli past ($p < 0.05$) bo'ldi, AFC ko'rsatkichi esa kamayganligi aniqlandi. Anti-TPO va anti-TG darajalari bilan AMH va AFC orasida teskari korrelyatsiya kuzatildi ($r = -0.42$ va -0.39). Bu hol tireoid autoimmun jarayonlar tuxumdon rezervining pasayishiga hissa qo'shishini ko'rsatadi.

Xulosa.

Autoimmun tireoidit reproduktiv yoshdagi ayollarda tuxumdon rezervining kamayishiga olib keluvchi muhim omillardan biridir. AMH va AFC ko'rsatkichlarini AIT bilan og'rigan bemorlarni baholashda majburiy skrining parametrlari sifatida qo'llash reproduktiv salohiyatni erta aniqlash va profilaktik choralarni o'z vaqtida ko'rish imkonini beradi.